

MORFOLOGIK SATHDA MIQDOR KONSEPTINING VOQELANISHI: OT VA SON SO‘Z TURKUMLARI MISOLIDA

Egamberdiyeva Nilufar Latibjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchalari, konsept hamda o‘zbek tilida miqdor konseptning ifodalanishida morfologik sath, so‘z turkumlaridan ot va sonning ahamiyati to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kognitiv lingvistika, miqdor konsepti, morfologiya, so‘z turkumlari, ot, son.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные понятия когнитивной лингвистики, понятие и количество в узбекском языке, морфологический уровень, значение существительных и чисел из словосочетаний.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, понятие количества, морфология, группы слов, существительное, число.

Abstract: This article discusses the main concepts of cognitive linguistics, the importance of nouns and numbers from word groups in the expression of the concept and the concept of quantity in the Uzbek language.

Keywords: cognitive linguistics, quantity concept, morphology, word groups, noun, number.

Kognitiv tilshunoslikning birlamchi funksiyalaridan biri til va ong munosabati, borliq jarayonlarini umumlashtirishda tilning ahamiyatini o‘rganish hisoblanadi. Lingvokognitiv konsept tilshunoslikdagi u yoki bu lug‘aviy birlik, uning o‘ziga xos xususiyatlari va uning atrofida birlashuvchi ma’nolar yig‘indisidir.

Miqdor universal mantiqiy kategoriya va u o‘zida borliqning eng umumiy xususiyatlarini aniqlik bilan aks ettirishga harakat qiladi.[1] Tilda miqdor kategoriyasining shakllanishi va rivojlanishi haqida V.Z. Panfilov tafakkur va til kategoriyalari o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratgan. Tadqiqotchining yozishicha, miqdor kategoriyasidan oldin sifat kategoriyasi turgan, faqat keyinroq odamda predmetlarning sifat xususiyatlaridan abstraktsiya qilish qobiliyati paydo bo‘lgan, ularning miqdoriy belgilari aniqlana boshlagan. Miqdor

kategoriyasi barcha zamonaviy tillarda turli grammatik va leksik vositalar bilan ifodalanadi. Tildagi miqdor kategoriyasini ifodalashning barcha usullarini tahlil qilish bir qator maxsus tadqiqotlar mavzusi bo'lishi mumkin, chunki bu turkum tilning butun tizimiga: uning lug'atiga ham, grammatikasiga ham kiradi. Miqdor semantikasi qamrovi jihatidan juda kengdir, chunki voqelikning barcha moddiy va nomoddiy elementlari miqdoriy o'lchov va xarakteristikaga bo'ysunadi. Miqdor ma'nosiga ega bo'lgan barcha til birliklari miqdor bildiruvchi nutqda miqdoriy belgi obyekt bilan qo'llaniladi.[2] O'zbek tilida miqdor konsepti morfologik sathda keng ifodalanish imkoniyatlariga ega. Mustaqil so'z turkumlari: ot, sifat, fe'l, son, olmosh, ravish orqali aniq va noaniq miqdor ma'nosi anglshiladi. Har bir so'z turkumida alohida xususiyatlarni aks ettiradi.

Ot so'z turkumiga mansub miqdor ifodalovchi birliklar mavjudot sonini turli ko'rinish va darajada ifodalash uchun xoslangan bo'lib, izchil qo'llanadi. Miqdor ma'nosi bildiruvchi so'zlar ham ko'proq turdosh otlar orqali ifodalanadi. Atoqli ot, asosan, birlik sonda qo'llanadi. Ko'plik son shaklida butunlay boshqacha ma'no bo'yog'iga ega bo'ladi: *Shirin-u Laylilar yo'lida intizor*.

Har bir turdosh ot yalpi ma'noda qo'llanilib, belgilanmagan sonni, ya'ni miqdorni anglatib beradi,- deydi A.G'ulomov.[3] Chunki turdosh otlar nol shaklda turganda ham birlik, ikkilik yoki umumiy ko'plikni ifodalab keladi va ko'plik shaklini olganda ko'p aniq yoki noaniq miqdorni bildirib keladi. Aniq ot miqdor nomini bildiruvchi quyidagi lug'aviy-mavzuviy guruhga ham ega: *misqol, tonna, botmon, chaqirim*.

Bundan tashqari turdosh otning deyarli ko'p qismi son so'z turkumi bilan birga qo'llanib, miqdor ma'nosining turli qirralarda yuzaga chiqishiga imkon beradi. Masalan: *Bir piyola choy ustida suhbatlashish qanday maroqli!*

Otning takroriy shakli ko'plik ma'nosini ifodalaydi, shuningdek, ma'noni kuchaytirish uchun qo'llanadi: Kolxozimda ombor-ombor g'allasi.. (Xabibiy.) Uning ko'zlaridan oppoq soqoliga qatra-qatra yosh tomar edi.(A.Qahhor.)

Otning juft shakli umumlashtirish, jamlik ma'nolarini ifodalaydi: qovun-tarvuz (qovun, tarvuz va boshqa poliz mahsulotlari), qozon-tovoq (qozon, tovoq va ularga aloqador bo'lgan boshqa asboblar) kabi. Jamlovchi otning o'zak, negizi ko'plikni bildiradi, shuning uchun bunday otga qo'shilgan -lar shu ko'plik (jamlik, yaxlitlik)ning birdan ortig'ini ifodalaydi: xalqlar, guruhlar, uyurlar.[4]

Miqdor ma'nosi ot so'z turkumida otning o'zak-negizi va son kategoriyasida yuzaga chiqadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida -lar va nol shakl miqdor ma'nosini bildiruvchi grammatik shakl. Miqdoriylik ma'nosi bu shaklda kategorial bo'lsa, unda sifatli yondosh, hamroh ma'nolar ham bor. Turdosh va atoqli otlar birlikda qo'llaniladi. Masalan: *Naima singlisiga qo'g'irchoq sovg'a qildi*. Ushbu gapdagi Naima, singil, qo'g'irchoq so'zlari birlik shaklda.

O'zbek tilida ko'plik ma'nosini ifodalovchi qo'shimcha bu –lar affiksi. Bu affiks, deyarli, otning barcha grammatik ma'no turlari bilan munosabatga kirisha oladi. Ushbu ko'plik qo'shimchasi miqdoriy jihatdan noaniq ko'plikni ifodalaydi. Masalan: *Shu gapni aytmasayam, kolxozchilar tong otmasdan dalaga chiqish kerakligini biladi. Oqsoqol raisligi paytida bunaqa dag'dag'alar yo'q edi.*

Son kategoriyasining a'zolari hisoblanuvchi birlik son ham ko'plik son shakli ham o'zida miqdor umumiy ma'nosini jam etadi. Bu miqdor ma'nosi esa nutq, sintaktik qurshov, leksema, yordamchi vositalar orqali namoyon bo'ladi va ko'plab turlicha umumiylik, o'xshashlik, kuchaytirilgan, bog'liqlik asosidagi ko'plik va birlik ma'nolarini jilvalantiradi. Bu ikki shakl ham miqdor konseptining yuzaga chiqishida bosh rollarni ijro etadi.

Son so'z turkumining umumiy grammatik ma'nosi shaxs, narsa, voqea-hodisaning aniq miqdorini bildirish hisoblanadi. Son miqdor bildirishi bilan ravish va sifatga yaqin turishi mumkin. Lekin, ulardan farq qilgan holda aniq miqdorni ifodalaydi, noaniq miqdor ifodalaganda ham raqam bilan beriladi. Son so'z turkumi sof va aniq miqdorni ifodalash uchun xoslangan lug'aviy vosita ekanini hisobga olib, son-miqdor mikromaydononining markazidan joy oladi, - deydi tadqiqotchi F.Safarov.[5]

Miqdor sonlar narsa miqdorini sanash yo'li bilan aniqlaydi. Miqdor sonlar sanalishi mumkin bo'lgan har qanday narsaning miqdorini ko'rsatadi: *Biz kelgusi ellik, yuz yillarga mo'ljallab ishonch bilan ish olib borishimiz kerak. (A.Muxtor) Siddiqjonning nomiga birdan uchta tabrik xati keldi. Eshik oldida beshta ot qator turar edi. (A.Qahhor)*

Miqdor sonlar o'zi ko'plik ma'nosini anglatgani uchun ko'plik affiksini qabul qilmaydi. Bu vaqtda miqdori aniqlangan narsani bildiruvchi ot ham -lar affiksini olmaydi: *Devor soat jimlikni buzib erinmay o'n ikki marta bong urdi. (S.Ahmad).*

Son turkumi sof va aniq miqdorni ifodalash uchun xoslangan lug'aviy vosita bo'lganidan maydon markazidan joy oladi. Tuzilish jihatdan sonning tub, yasama, qo'shma, aralash va takroriy shakli bor. Bu shakllar orqali sonning olti mazmuniy turi hosil bo'ladi: sanoq, kasr, taqsim, jamlovchi, chama va tartib son. Miqdor ma'nosi sonning o'zagidan anglashiladi. Sonning ma'noviy turlarini yasovchi qo'shimchalar (-ta, -tadan, -(n)nchi, -ov, -ala, ovlashib, -ovlon, -tacha -lar, -larcha,-lab) o'zakdan anglashilgan miqdor ma'nosiga turlicha ta'sir qiladi. Bular miqdorni sanab, taqsimlab, tartiblab, jamlab, chamalab ko'rsatishga xizmat qiladi. Son nutq (birikma, matn)da ot bilan birga qo'llanib, yadro atrofida joylashadi. Son turkumi ot va fe'lning son kategoriyasi, egalik kategoriyasi shakllari, olmosh ifodalagan miqdor ma'nosini aniqlashtirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Son turkumining maydonda tutgan o'zni ana shu bilan belgilanadi.[5] Darhaqiqat, son aniq miqdor ifodalashga xoslangan so'z

turkumi va uning ma'noviy turlari miqdor ma'nosiga turli qo'shimcha ma'nolar yuklaydi. Misollar bilan ko'rib chiqamiz.

1. To'g'ri, bizning yigitlar unaqa emas: o'n uch kishi zilziladan buyon birga ishlaymiz: o'n ikki yil bo'ldi. Hammamiz aka-uka bo'lib ketganmiz. Olti yil avval meni o'zlari brigadir qilib «ko'tarishgan». (miqdor son)

2. Shu kungacha naryadni o'rtacha o'n so'mdan kam yopmasdim.

3. Bu safar oyim bilan uyga kirib ketib, chorak soatcha bir nimalami gaplashdida, yo'lga o'tlanib qoldi. (kasr)

4. Buvisi nabiralariga olmani ikkitadan taqsimlab berdi. (taqsim)

5. Katta chumchuq uchib kelishi bilan uchala bolasi sap-sariq tumshug'ini katta ochib, baravar chirqillaydi. (jamlovchi)

6. Unga bitta narsa kerak: qay yo'l bilan bo'lmasin, planni bajarsa, ko'chma Qizil bayroq olsa - bas. (dona son)

7. Katta bino eshigi oldida yuzlarcha odam to'plangan edi. (chama)

Tartib son narsa buyumning aniq, konkret miqdorini, ketma-ketligini ifodalaydi: (i)nchi: beshinchi ko'cha, to'rtinchi yo'lak. Tartib sonlar predmetning miqdoriga ko'ra belgisini bildiradi.

Sanoq sonlar narsaning miqdorini sanab, donalab ko'rsatishga ko'maklashadi. Bir- sanoq soni ayrim xususiyatlari bilan boshqa sonlardan ajralib turadi. Ikki, besh, o'n, sakkiz kabi sonlar ot bilan bog'lanib, uning miqdorini aniqlaydi. Bir so'zida esa konkret miqdor bildirish xususiyati ancha kuchsizlashgan, chunki predmetning birligi, tanholigi, yakka ekanligi o'tning birlik shakli orqali ham ifodalanadi: *Qassob dumbasi selkillagan qo'yni tomorqaga yetaklab o'tganidan so'ng Nasimjonning ko'ngli tinchidi. (Oybek)*. Bunda bir so'zi qo'llanmasa ham, qassob, dumba, qo'y, tomorqa kabilarning bitta ekanligi anglashilib turadi. Bir so'zida miqdor ma'nosining kuchsizlashganligi uning asosiy ma'nosidan tashqari, juda ko'p boshqa ma'nolarni ifodalashida ham ko'rinadi. Bu ma'nolar esa faqat matnda aniqlanadi: *Magazinning bir derazasi choyxona tomonga, bir derazasi maktab surilishi tomonga ochilardi. (A.Muxtor)*

Miqdor tushunchasi juda mavhum bo'lgani sababli, uni ifodalovchi so'z ham mavhum xususiyatga ega. Son shu xususiyati bilan boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi. Masalan, to'rt, besh, ikki, o'ttiz uch, ikki yuz o'n to'qqiz kabi sonlar alohida olinganda, faqat mavhum miqdor tushunchasinigina ifodalaydi. Sonning ma'nosi u biror narsa nomini bildirgan so'z bilan bog'langandagina aniqlanadi: beshta daftar, o'n ikki kishi, yigirma uch uchuvchi kabi. Bir sonidan katta barcha sonlar o'tning ko'plik shakliga xos birdan ortiqlik, ko'plik tushunchasini aniqlab ifodalashga xizmat qiladi. O'zbek tilida sonlar birlik, o'nlik, yuzlik, minglik sistemasida qo'llanadi, ya'ni avval

birdan o'ngacha sonlar(birliklar) ayrim so'zlar bilan ifoda qilinadi. Keyin har qaysi o'nlikning o'ziga xos nomi bor.

Juft sonlar ikki sonning o'zaro tenglashish yo'li bilan bog'lanishidan yasaladi va taxminiy miqdor ma'nosini anglatadi: to'rt-besh, besh-olti, o'n-o'n besh, qirq-ellik, ikki yuz-uch yuz kabi. Ikki sonning o'zaro teng bog'lanishida kichikdan kattaga tomon bittadan (bir-ikki, ikki-uch, yetti-sakkiz kabi), beshtadan (besh-o'n, o'n-o'n besh, yigirma-yigirma besh kabi), o'ntadan (yigirma-o'ttiz, qirq-ellik, sakson-to'qson kabi), yuztadan (uch yuz-to'rt yuz, besh yuz - olti yuz kabi), mingtadan(ming-ikki ming, uch-to'rt ming, besh-olti ming kabi) oshirib boriladi: *Suyunboy aka mehmonlar bilan ko'rishib chiqqach, xurjunidan to'rtta tandir non, besh-oltita somsa olib qo'ydi. (P.Qodiriy). o'n-o'n besh ming emas, yigirma-yigirma besh ming gektarni cho'ldan uzib oladigan bo'ldik. (Oybek).*

Hisob so'zlar son so'z turkumi bilan birga qo'llanib predmet, voqea-hodisa, ish-harakatning uzunlik, og'irlik, hajm, shakl kabi o'lchovini bildiradi . Hisob so'zlar, odatda, ot turkumiga oid so'zlardan olinadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, miqdor konsepti morfologik sathda o'ziga xos namoyon bo'ladi. Har bir so'z turkumining semasi, o'ziga xos morfologik ko'rsatkichlari orqali miqdor ma'nosi turlicha namoyon bo'ladi. Jumladan, ot so'z turkumida turdosh ot semasi, son kategoriyasi, otning juft va takroriy shakllari orqali, son so'z turkumida sonning ma'noviy turlari, juft va takroriy shakllari, hisob so'zlar orqali keng ifodalanish imkoniyatiga ega. Har bir so'z turkumiga alohida, chuqur yondashuv yana yangi qirralarni kashf etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Panfilov V.Z. Fikrlash va til toifalari. Sifat kategoriyasining shakllanishi va rivojlanishi // Tilshunoslik masalalari. - 1976. - № 6 -S. 3-18.
5. Ф.С. Сафаров. Ўзбек тилида сон миқдор микромайдони ва унинг лисоний нутқий хусусиятлари. Автореферат. Самарқанд. 2004.